

MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA XALQARO STANDARTLAR TALABLARI

Orifjonova Omina Iqboliddin qizi

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi va

auditi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy hisobotlarni tuzishning me'yoriy-huquqiy asoslari hamda xalqaro standartlar talablari keng va batafsil yoritilgan. Moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish jarayonini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS)ning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy hisobotlarning asosiy tamoyillari, ularni tuzish bosqichlari hamda axborotning ishonchliligi, shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashdagi me'yoriy-huquqiy bazaning o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, me'yoriy-huquqiy asoslar, buxgalteriya hisobi, BHMS, MHXS, IFRS, xalqaro moliyaviy standartlar, hisobot tamoyillari.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini haqqoniy aks ettirish, investorlar va kreditorlarni ishonchli axborot bilan ta'minlash hamda boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilishda moliyaviy hisobotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Moliyaviy hisobotlar korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to'g'risidagi muhim axborot manbai hisoblanib, u xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining yakuniy natijalarini aks ettiradi. Shu sababli moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ularning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va xalqaro integratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, xalqaro kapital bozorlari bilan hamkorlik qiluvchi korxonalar uchun moliyaviy axborotlarning taqqoslanishi, ochiqligi va xalqaro investorlar tomonidan tushunarli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois dunyo amaliyotida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - MHXS (IFRS) keng qo'llanilib, moliyaviy hisobotlarni yagona mezon asosida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur standartlar moliyaviy axborotlarning haqqoniyliigi, shaffofligi va foydalanuvchilar uchun foydaliligini ta'minlashga qaratilgan [9].

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli

islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida moliyaviy hisobotlarni MHXS talablari asosida yuritish tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida korxonalarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda korporativ boshqaruv samaradorligini kuchaytirish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda [3].

Moliyaviy hisobotlarni tuzishning me'yoriy-huquqiy asoslari korxonalarda hisob yuritishning yagona tartibini belgilab beradi. Ular moliyaviy hisobotlarning shakli, tarkibi, taqdim etish muddatlari, aktiv va majburiyatlarni baholash mezonlari hamda foydalanuvchilarga axborotlarni yetkazish tamoyillarini tartibga soladi. Ayniqsa, MHXS talablari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash korxonalarining xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishda ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, ular orasida milliy hisob tizimi bilan xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar, malakali mutaxassislar yetishmasligi, elektron hisobot tizimlarini joriy etishdagi kamchiliklar hamda moliyaviy axborotlarning sifatini ta'minlash bilan bog'liq masalalar mavjud. Bu esa moliyaviy hisobotlarni tuzishning me'yoriy-huquqiy asoslari va xalqaro standartlar talablarini chuqur o'rganishni taqozo etadi [5].

1-jadval.

BHMS va MHXS (IFRS) o'rtasidagi asosiy farqlar.

Ko'rsatkich	BHMS	MHXS (IFRS)
Qo'llanilish hududi	O'zbekiston ichida	Global miqyosda
Yondashuv	Qoidaga asoslangan	Tamoyilga asoslangan
Baholash	Ko'proq tarixiy qiymat	Adolatli qiymat (fair value) keng qo'llaniladi
Moslashuv	Milliy iqtisodiyotga mos	Xalqaro investorlar uchun mos
Maqsad	Ichki hisobot va soliq	Investorlar uchun ochiq axborot

Shu munosabat bilan mamlakatimizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish uchun bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, mamlakatimizda MHXSlariga o'tishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-son "Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 martdagi PQ-4265-son "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4124-son "Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bilan yillik moliyaviy hisobotning MHXSlariga muvofiq e'lon qilinishi va uni Auditning xalqaro standartlari (AXS) asosida tashqi auditdan o'tkazilishi bo'yicha vazifalar yuklatildi. O'zbekiston innovatsion iqtisodiyotga va raqamli iqtisodiyotga bosqichma bosqich o'tmoqda. Raqamli iqtisodiyot yagona axborot bazasiga tayanadi, qaysiki ushbu axborotlarning salmoqli qismi buxgalteriya hisobida shakllanadi. Buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining yagona bazada elektron integratsiyalashuvi raqamli iqtisodiyotning asosiy belgisidir. Buxgalteriya hisobining axborot bazasining shakllanishi MHXSlariga tayanadi. Shu bois, raqamli iqtisodiyot mamlakatimizda MHXSGa o'tishni zaruriyat qilib qo'ydi. Shu bois, to'liq asosda aytish mumkinki MHXSlariga o'tish raqamli iqtisodiyotning muhim va ajralmas qismidir. MHXSlariga o'tish iqtisodiyotimizning asosiy to'sig'i bo'lib kelayotgan korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali vositasidir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga o'tish va ularni korxonalar amaliyotida keng qo'llash bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida rivojlanish yo'lini tanlagan dunyoning barcha mamlakatlari, chunonchi bizning respublikamiz oldida turgan eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biridir.

Ta'kidlash joizki, MHXSGa o'tish va ularni ilk bor qo'llash ko'plab tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, texnik, texnologik, shuningdek metodologik va boshqa masalalarni hal qilishni taqozo etadi. Chunonchi, ushbu masalalarni ma'lum bir ketma-ketlikda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi talab qilinadi. Bizningcha, MHXSlarga o'tish va ularni ilk bor qo'llashni bajariladigan ishlar va amalga oshiriladigan tadbirlar mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, shuningdek ular ijrosi ketma-ketligiga ko'ra quyidagi to'rtta bosqichga ajratish maqsadga muvofiq [8].

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini takomillashtirish bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy muhitda bu standartlarning faqat an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslanishi yetarli emas. Jahon bo'ylab investitsion shaffoflik va taqqoslanish talabining oshishi, texnologik taraqqiyot va barqarorlik mezonlariga bo'lgan talab moliyaviy hisobotlarni tubdan yangilash zaruratini tug'dirmoqda.

2-jadval.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini takomillashtirish imkoniyatlari.

№	Takomillashtirish yo'nalishi	Tavsif	Kutilayotgan natijalar
---	------------------------------	--------	------------------------

1	Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish	XBRL, blokcheyn va boshqa raqamli yechimlardan foydalanish	Hisobotlarning aniqligi, tezligi va avtomatlashtirilgan tahlil imkoniyati ortadi
2	ESG mezonlarini kiritish	Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotlarga integratsiya qilish	Investorlarga kengroq ko'rinish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish
3	Global standartlarni uyg'unlashtirish	IFRS va boshqa mahalliy standartlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish	Yagona global moliyaviy tilga erishish
4	Kichik va o'rta korxonalar uchun soddalashtirish	IFRS for SMEs standartlarini yanada moslashtirish	KOKlar uchun arzon, oson va tushunarli hisob tizimi yaratiladi
5	Ochiqlik va taqqoslanishni oshirish	Standartlardagi noaniqliklarni aniqlash, yagona talqinlarni ishlab chiqish	Foydalanuvchilar uchun tushunarli va ishonchli hisobotlar
6	Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan audit	AI yordamida tahlil va tavsiyalar yaratish, real vaqtli monitoring	Tezkor aniqlik, xatolar kamayishi, audit xarajatlari pasayishi
7	Foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirish	Investorlar va regulyatorlar ehtiyojlarini hisobga olish	Standartlar amaliyotga yaqinlashadi, hisobotlar foydali bo'ladi

Birinchi navbatda, raqamli texnologiyalarni (XBRL, blokcheyn) joriy etish hisobotlarni avtomatlashtirish va tezkor tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa, nafaqat foydalanuvchilar uchun qulaylik, balki korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish imkonini ham yaratadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish bu - ESG ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotlarga integratsiya qilish. Korxonaning atrof-muhitga ta'siri, ijtimoiy mas'uliyati va boshqaruv samaradorligi haqida ma'lumotlar investorlar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, yagona global moliyaviy standartlar tizimiga erishish orqali turli mamlakatlardagi korxonalar hisobotlarini solishtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Hozirda mavjud bo'lgan IFRS va US GAAP o'rtasidagi farqlar bu borada sezilarli to'siq hisoblanadi. Kichik va o'rta korxonalar (KOK) uchun soddalashtirilgan hisobot standartlarini yanada takomillashtirish esa ularning rasmiy moliyaviy tizimga jalb etilishini osonlashtiradi va iqtisodiy shaffoflikni oshiradi. Hisobotlar taqqoslanadigan va tushunarli bo'lishi uchun, amaldagi standartlardagi

noaniq jihatlar aniqlashtirilib, yagona talqinlar ishlab chiqilishi lozim. Bunga qo'shimcha ravishda, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan audit texnologiyalarini tatbiq etish orqali moliyaviy tahlil va nazorat jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Oxir-oqibatda, moliyaviy hisobotlarni takomillashtirishda foydalanuvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Investorlar, kreditorlar, regulyatorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun mazmunli, dolzarb va moslashtirilgan hisobotlar eng yaxshi qarorlar qabul qilishda asosiy vosita bo'ladi [6].

3-jadval.**MHXS joriy etilishining asosiy afzalliklari.**

Afzallik	Tavsif
Investitsiya jalbi	Xorijiy investorlar uchun ishonch oshadi
Shaffoflik	Moliyaviy ma'lumotlar ochiq va aniq bo'ladi
Taqqoslanish	Xalqaro kompaniyalar bilan solishtirish mumkin
Raqobatbardoshlik	Korxonalar global bozorda kuchayadi
Moliyaviy intizom	Hisobot yuritish sifati oshadi

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS yoki IFRS) bugungi kunda global iqtisodiyotda muhim axborot manbasi sifatida xizmat qilmoqda. Ular korxonalarining moliyaviy holati, rentabelligi va barqarorligi to'g'risida aniq, ishonchli va taqqoslanadigan ma'lumotlarni taqdim etadi. Biroq, zamonaviy iqtisodiy va texnologik sharoitlar MHXS'ni yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Tahlil shuni ko'rsatdiki, hozirgi IFRS tizimida ESG mezonlarining yetarlicha aks ettirilmaganligi, kichik biznes ehtiyojlarining to'liq qamrab olinmaganligi, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi kabi kamchiliklar mavjud. Shuningdek, ayrim standartlar tatbiqida talqinlar farqlari kuzatilmoqda, bu esa taqqoslanishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, moliyaviy hisobotlarning nafaqat texnik, balki kontseptual jihatdan ham takomillashtirilishi dolzarb masalalardan biridir. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Xalqaro standartlarga ESG mezonlarini integratsiya qilish: Atrof-muhitga ta'sir, ijtimoiy javobgarlik va boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish majburiy holga keltirilishi kerak.

2. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yengillashtirilgan standartlarni kengaytirish: "IFRS for SMES" doirasida yanada moslashuvchan, arzon va tushunarli hisobot shakllari ishlab chiqilishi lozim.

3. Hisobotlarning raqamlashtirilishini jadallashtirish: XBRL, blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali hisobotlar sifatini oshirish, xatoliklarni kamaytirish va real vaqtli monitoring imkonini yaratish maqsadga muvofiq.

4. IFRS va mahalliy standartlar (xususan, US GAAP) o'rtasidagi farqlarni kamaytirish: Global yondashuvni yaratish uchun xalqaro va mahalliy standartlar uyg'unlashtirilishi zarur.

5. Standartlardagi noaniqliklarni bartaraf etish: Talqin farqlarining oldini olish uchun IFRS matnlari yanada aniq, tushunarli va amaliy misollar bilan boyitilishi kerak.

6. Foydalanuvchi markazli yondashuvni joriy qilish: Investorlar, kreditorlar, tahlilchilar va regulyatorlarning ehtiyojlarini chuqur o'rganish asosida standartlar doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozim [7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, moliyaviy hisobotlarni tuzishning me'yoriy-huquqiy asoslari hamda xalqaro standartlar talablari korxonalarda moliyaviy axborotning ishonchliligi, shaffofligi va taqqoslanish imkoniyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida bu jarayon asosan milliy qonunchilik hujjatlari, buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS) asosida tartibga solinadi.

Milliy va xalqaro standartlarning uyg'unlashuvi korxonalarining moliyaviy hisobotlarini yanada sifatli va xalqaro talablarga mos darajaga olib chiqadi. Bu esa o'z navbatida investorlarga ishonchli axborot taqdim etish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda korxonalarining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini tezlashtirishga xizmat qiladi [12].

MHXS talablarini joriy etish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonini soddalashtiradi, aniqlik darajasini oshiradi va xatoliklarni kamaytiradi. Umuman olganda, moliyaviy hisobotlarni tuzishda me'yoriy-huquqiy bazaga va xalqaro standartlarga qat'iy rioya qilish korxonalarining faoliyatining samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni (2022-yil 28-yanvar) "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
5. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS).
6. Dusmuratov R. D. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

7. Karimov A. A., Kurbanbayev J. E., Jumanazarov S. A. “Buxgalteriya hisobi” – Toshkent, 2019.
8. To‘xtasinov I. T. “Moliyaviy hisob” – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
9. Vahobov A. V., Ibrohimov A. T. “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” – Toshkent: Sharq, 2019.
10. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi.
11. www.imv.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
12. www.ifrs.org - International Financial Reporting Standards Foundation.